MAQSUD SHAYXZODA – ULKAN SHE’RIYAT SOHIBI

Qo‘ziboyev Behruz Bahodir o‘g‘li
Toshkent davlat transport universiteti
Elektrotexnika va kompyuter muhandisligi fakulteti
AB-6 guruh talabasi
Ilmiy rahbar O‘zbek (rus) tili kafedrasi ass.
Izzatullayeva Nigora Djoraxonovna
https://doi.org/10.5281/zenodo.7674284

Annotatsiya: Mazkur maqolada shoir Maqsud Shayxzodaning xalq qalbidan joy olgan sermahsul ijodi va uning o‘zbek milliy maqdaniyatida tutgan o‘rni haqida fikr yuritiladi. Shoir she’rlarida “Ona Vatan”, “Tinchlik”, “Samimiylik”, “Mehnatsevarlik” mavzularining aks etishi uning jozibali misralari orqali tahlil qilinadi. O‘zbek adabiyotida shoirning o‘rni va nufuzi juda baland ekanligi ko‘rsatiladi hamda, shoir she’rlariga bugungu kundagi ijtimoiy-ma’naviy ehtiyojning mavjudligi asoslanadi. Ushbu maqola Maqsud Shayxzoda she’riyati va asarlarining badiiy qimmati va ma’rifiy ahamiyatiga bag‘ishlangan.

Kalit so‘zlar. Nazm, iste’dod, mohiyat, taassurot, madh etish, hayrat.

Annotation: This article discusses the poet Maqsud Shaykhzoda’s prolific work in the hearts of the people and his role in the Uzbek national culture. The poet's poems reflect the themes of Motherland, Peace, Sincerity, Peace, and Diligence, which are analyzed through his captivating verses.The article is devoted to the artistic value and enlightenment significance of Maqsud Shaykhzoda's poetry.

Keywords: Poetry, talent, essence, impression, praise, admiration.

O‘zbek adabiyotining atoqli va mashhur namoyandalaridan biri bo‘lgan Maqsud Shayxzoda 1908-yilning 25-oktyabrida Ozarboyjonning Oqdosh shahrida shifokor Ma’sumbek va Fotimaxonim oilasida dunyoga kelgan. Maqsud Oqdosh singari kichik shaharlarda kamdan-kam uchrovchi ziyoli va taraqqiyparvar kishilar oilasida tug‘ilgan edi. Maqsudning ilm olishi va shoir sifatida shakllanishida otasi Ma’sumbekning ishtiroki nihoyatda katta bo‘lgan; onasi Fotimaxonim ham oqdoshlik ayollarning ijtimoiy faollashuviga sezilarli ta’sir ko‘rsatgan. Taniqli ozar adibi va jamoat arbobi Mirza Ibrohimovning ta’kidlashicha, uning ota-onasi ziyrak, zehnli farzandlarining iste’dodini bilib, qobiliyatini o‘stirishga alohida e’tibor bergan, unda ilm-fanga bo‘lgan ixlos, go‘zallikka nisbatan muhabbat tuyg‘usini uyg‘otgan. Maqsud ota-onasi ta’sirida hushyor, bilimdon, yangilikka intiluvchi, jamiyatda ro‘y berayotgan voqea va hodisalar mohiyatini tushunishga aqli zakovati yetadigan bir yigit bo‘lib voyaga yetgan.

Shoir 1928 yilda Toshkenti azimga kelib, umrining oxiriga qadar jonajon poytaxtimizda yashab, ijod qilgan. Ijodining ilk dastlabki namunalarini 1922-yilda ozarboyjon tilida yozgan. Shayxzoda 1928 yilda Toshkentga kelib «Sharq haqiqati» gazetasida ishlar ekan, o‘zbek shoirlari Oybek va G‘afur G‘ulom singari do‘stlari ko‘magida o‘zbek tilini shiddat bilan o‘rganib, 1929 yilda shu gazetada «Traktor» degan she’rini e’lon qildi. Bu atoqli shoirning o‘zbek tilida yozgan birinchi she’ri edi. U shu vaqtdan boshlab umrining so‘nggi nafasiga qadar o‘zbek adabiyotining ravnaqi yo‘lida mashaqqat bilan ter to‘kib, adabiyotimiz xazinasini o‘ziga xos shayxona jo‘shqin she’r va dostonlar, drama va tarjimalar, adabiy-tanqidiy maqolalar bilan yanada boyitdi.

Shoir bu shahri azimni o‘zining ikkinchi vatani deb bilgan. Ijod ummoniga g‘arq bo‘lgan Shayxzoda «O‘n she’r», «Undoshlarim», «Uchinchi kitob», «Kurash nechun», «Jang va qo‘shiq», «Kapitan Gastello», «Ko‘ngil deydiki…» kabi bir necha she’riy to‘plamlar, tarix zarvaraqlarida o‘chmas iz qoldirgan «Jaloliddin Manguberdi» tarixiy dramasi va boshqa bir qator publitsistik asarlarni yaratdi.

Shoir o‘z umrining bir daqiqasini ham xalqqa xizmat qilishdan forig‘ holda tasavvur etmagan. O‘zbek she’riyatida Maqsud Shayxzoda G‘afur G‘ulomdan keyin, to‘g‘rirog‘i, u bilan yonma-yon turib, mustabid davrda, qo‘rqmasdan, she’rlarida «o‘zbek» so‘zini ulug‘ bir iftixor ila eng ko‘p ishlatgan mard va jasur shoirdir. U o‘z asarlarida nima haqda yozsa ham, ularning tag-zamirida o‘zbekni, uning fazilatlarini madh etish hissi yotadi. Shayxzoda, o‘zi e’tirof etganidek, she’riyatda zamonaviy voqelikni, dramaturgiyada esa tarixiy o‘tmishni tasvirlashga hamda xalq va mamlakatning dardli masalalarini o‘tmishga bag‘ishlangan asarlarida ifodalashga intildi. Maqsud Shayxzoda serqirra salohiyatli san’atkor edi. Uning «Navoiy», «Yo‘q men o‘lgan emasman!», «Ko‘r kuychi balladasi», «Tovushlar», «Binafsha», «Bir chog‘lar», «Xiyobon», «G‘afurga xat» kabi she’r va balladalarini o‘qigan kitobxon bir zum hayratda qoladi. She’rlardagi tashbehlar o‘zining hayron qoldirarli darajadagi favquloddaligi, benihoya aniqligi va tabiiyligi bilan kishini quvontiradi. Shayxzodaning «Yo‘q, men o‘lgan emasman!» she’ri ikkinchi jahon urushi davrida umumittifoq adabiyoti miqyosida yaratilgan eng zo‘r asarlarning biri bol‘ib qoldi. Bu she’rning har bir misrasi insonning insoniyatga, Vatanga, tabiatga, o‘z g‘oyasiga ezgu muhabbati, yovuzlikka nisbatan cheksiz nafrati va ezgulikka olqishidan iborat. Uni ta’bir joiz bo’lsa oddiy she’r deyishdan ko‘ra, inson umrining dostoni deyish ma’qulroqdir, chunki u – urush qurbonlarining hayot qo‘shig‘i; unda yashab o‘tilgan umrdan g‘ururlanish, ayni paytda hayotdan judo bo‘lishning azob va uqubatlari butun og‘irligi o‘z tajassumini topgan.

Maqsud Shayxzodaning oltmishinchi yillardagi lirikasi shoir ijodidagi yuksalishning eng baland va, afsuski, eng so’nggi pillapoyasi bo‘ldi. Ularda biz mukammal badiiy mahoratni, tom ma’nodagi nafosatni‘. «Shamolni ko‘z bilan ko‘rib

bo‘lmaydi», «Kechir meni, «Mayli» de!», «Binafsha», «Bersang ijoza», «Bir chog‘lar», «Bilasanmi?», «Ayriliq», «G‘afurga xat» kabi qator she’rlari fikrimizning yorqin dalili bo‘la oladi.

Shayxzodaning «Inson, she’r va shoir» she’rida, shoirning naqadar bag‘ri keng, ruhiyati toza va tasavvur olami juda boy ekanligiga ishonch hosil qilasiz. She’r inson haqidagi qo‘shiq. Lekin unda Shayxzoda faqat inson olaminigina kuylamasdan, boshqa olamlarni ham ramziy ma’noda insoniylashtiradi, ularni inson qalbi orqali bir-biriga yaqinlashtiradi, birlashtiradi. Uning nazdida nafaqat inson hayoti, balki giyohning ham, qushning ham, baliqning ham, daraxtning ham – barcha-barcha mavjudotning hayoti qadrlanishga, eslanishga va hurmat ko‘rsatilishga loyiq. Shoir ularning hammasiga ezgulik va go‘zallik ko‘zi orqali qaraydi, hammasini dil-dildan sevadi, hammasining mohiyatan bir ildizga borib taqalishini o‘ziga xos badiiy mantiq vositasida in’ikos ettirib beradi. Inson – mehvar, olam ana shu mehvar atrofida aylanadi. Zero, shoir olam mohiyatida yaxlitlik mavjudligini yaxshi anglaydi, hammasi yagona Yaratganning bir–birini to‘ldirib turuvchi olami ekanini kosa tagida nimkosa tarzida aytib o‘tadi – faqat inson emas, barcha yaralgan mavjudotlar shoir she’ridan o‘rin olishga haqli.

Oradan juda ko‘p yillar o‘tgan bo‘lsa ham Maqsud Shayxzodaning turfa xil asarlari, boy adabiy merosi hanuzgacha o‘z kuch-qudratini namoyon etib kelmoqda. Yaqinda shoir Botir Ergashevning aynan "Jaloliddin Manguberdi" dramasidagi

“Ulug‘vor niyatlarga kor qilmas ajal,
Kim yurtdan yovni quvsa, mendirman o‘shal”

misrasidan ilhomlanib yozgan she’ri iste’dodli xonanda O‘zbekiston xalq artisti Ozodbek Nazarbekov tomonidan maromiga yetkazib kuylanishi va bu qo‘shiqning xalqimiz ko‘nglidan chuqur o‘rin egallaganligi bunga yorqin misol bo‘la oladi. She’riyatga bo‘lgan o‘tli mehr, she’r yozish shoir uchun nafas olishdek tabiiy bir jarayon va hayotiy ehtiyoj edi. Agar Shayxzoda boshqa bir tarixiy-madaniy sharoitda yashab ijod qilganida Olloh bergan buyuk iste’dodi tufayli badiiy madaniyatning ko‘plab shayxona muhtasham obidalarini yaratgan bo‘lar edi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. To‘lqin Eshbek. Shayxona shoir.«Tafakkur» jurnali (2007 yil, 4-soni).

2. Naim Karimov, Maqsud Shayxzoda: Ma’rifiy-biografik roman. – T.: “Sharq”, 2009.